LEKSIKOLOGIYA VA SO‘Z YASALISHI

Tursunova Nigora
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Til ilmi alohida fan sifatida shakllangan paytdan, ya`ni antik davrdan boshlab, tilga sistema sifatida qarash boshlangunga qadar XX asrning birinchi choragigacha bo‘lgan davrda so‘z tilning asosiy birligi sifatida qaralgan, qolgan barcha birliklar so‘z asosida o‘rganilgan va izohlangan. Bu jihatdan so‘z yasalishi va uning kichik ma`noli qismlarga bo‘linishi ham so‘z tarkibida o‘rganilgan edi. So‘zdan kichik birliklar so‘zning segment birliklari sifatida, so‘zdan katta birliklar esa so‘zlarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan birliklar sifatida izohlanar edi. Tilning barcha birliklari so‘z asosida aylanar va ana shundan keltirib chiqarilar edi. So‘z yasalishining manbayi ham albatta so‘zdir. So‘z tilshunoslikning leksikologiya, morfologiya, grammatika bo‘limlarida ham o‘rganiladi. Faqat har bir bo‘limda so‘zga turlicha yondashiladi, masalan, leksikologiyada so‘z va uning yasalishi, ma`no turlari, tilning lug`at qatlami va hokozolarni o‘rgansa, morfologiya esa so‘zning shakliga va turkumlanishiga e`tibor qaratadi. Leksikologiya so‘z va uning shakl va ma`no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rganar ekan, nima uchun, leksemaga yasovchi affiks qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan yangi so‘zni o‘rganmasin. Aslida tilshunoslik uchun “Morfemika” nomli alohida bir bo‘lim qanchalar kerak edi?! Tabiatshunoslikda barcha planetalarning nima asosida harakat qilishiga ko‘ra geosentrik (barcha planetalarning yer atrofida aylanishi) va geliosentrik (barcha planetalarning harakat markazida quyosh turishi) nazariyalarning mavjud bo‘lgani kabi, tilshunoslikda ham **barcha til birliklarining asosida so‘z turadi,** degan qarash asosida glossosentrik (lotincha glosso - so‘z) yoki verbosentrik (lotincha verba — fe'l yoki so‘z) nazariyasi vujudga keldi. I. A. Boduen de Kurtene ham morfema atamasini tilshunoslikka olib kirar ekan, uni glossosentrizm nuqtayi nazardan izohladi.[24]

Dunyoda o‘zgarmaydigan narsa yo‘q – har qanday qarash va gipotezalar vaqt o‘tishi bilan ma`lum darajada o‘zgaradi va taraqqiy etib boradi, til hodisalari ham bu jarayondan xoli emas, albatta. O‘tgan asrning o‘rtalarigacha morfema so‘zning tarkibiy qismi sifatida qaralib “so‘z yasalish” hodisasi tilshunoslikning “Morfologiya” bo‘limida o‘rganildi. Bizga ma`lumki tilshunosligimiz tarixida morfosentrik nazariyadan oldin verbosentrik nazariya yetakchilik qilar edi. Verbosentrik nazariyaga ko‘ra til sistemasining yadrosida so‘z turadi va qolgan barcha birliklar so‘z asosida izohlanadi. Xususan, tovush, bo‘g‘in, so‘z birikmasi, gap singari paradigmatik qatorni tashkil etar edi. Bu nazariyaga ko‘ra so‘zning eng kichik

[24] Қаранг: Абдухамид Нурмонов. Ўзбектилшунослиги тарихи. – Т.: Фан. 2002. – Б. 179

ma`noli qismi sifatida *morfema* e`tirof etildi. A.G'ulomov ham verbosentrik konsepsiyaga asoslanib morfemaga shunday ta`rif berdi: «Morfema - so'zlarning ma'noli qismlari bo'lib, u o'z navbatida, yana ma'noli qismlarga bo'linmaydi». Yoki: «So'z sostavida ajratiladigan qismlar, asosan, morfema hisoblanadi, chunki ular ma'lum ma'no anglatishga xizmat qiladi».[25] O'zbek tilshunosligi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, so'z yasalishi va u bilan bog'liq bo'lgan muommolar xususida Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida ham, Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida ham, Muhammad Chingiyning «Kelurnoma», Fitratning «Sarf» asarlarida ham so'z yasalishiga oid fikrlar keltirilgan bo'lsa-da, lekin so'z yasalish hodisasi va bu sohani o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi to'g'risida hech qanday ma`lumotlar keltirilmagan. XX asrning 40-yillarida A.G'ulomov tadqiqotlari natijasi o'laroq "So'z yasalishi" tilshunoslik fanining alohida bo'limi sifatida shakllandi. A.G'ulomov 1949-yilda nashr qilingan "O'zbek tilida so'z yasash yo'llari haqida" nomli maqolasida aynan so'z yasalish muommosi xususida bir qator masalalar o'sha davrda tilshunoslik nazariyasi erishgan yutuqlar asosida ilmiy yechimini topdi.[26]

A.G'ulomov so'z yasalishi haqida fikr yuritar ekan, morfologik sathda o'rganilib kelinayotganligini tanqidiy baholaydi. Vaholangki, "so'z yasalishi" qaysi yo'l bilan bo'lmasin yangi so'z hosil qilishdir. Leksik birliklarni tadqiq etilishi bilan esa leksikologiya bo'limi shug'ullanishi haqida to'xtaladi. Va quyidagilarni yozadi: "So'z yasalishi masalasini biz hozirgacha morfologik planda qarab kelamiz, xolbuki, so'z yasash qanday bo'lmasin biror usul bilan yangi so'z hosil qilishdir. Demak, u leksika — so'z bahsiga qarashlidir. Eski grammatik ta`limotga ko'ra, so'z yasalishi va so'z o'zgarishi morfologiyada qaralardi. Haqiqatda esa, bular formal jihatdangina o'xshash, funksional jihatdan boshqa-boshqa hodisalardir: birinchisi — leksik hodisa, ikkinchisi — sintaktik hodisa. Bundan anglashiladiki, so'z yasalishining morfologik planda qaralishi hind-ovropo til bilimining ustanovkalariga tayanadi; hind-ovropo til bilimi, formal metod bilan ishlaydi va so'z diqqatini fonetika va morfologiyaga berib, so'z masalasini ikkinchi darajali o'ringa «irg'itadi», semantika hodisalarini... so'zlarning ma`nolari haqidagi ta`limotni mutlaqo hisobga olmaydi".

So'z yasalishi tilshunoslikning ham morfologiya, ham leksikologiya bo'limlari bilan bog'liqdir. Bu borada yasalishga material vazifasini bajaradigan til birliklari - *morfemalar* bo'lganligi sabab morfologik sathga aloqadordir. Yetakchi morfema bilan ko'makchi morfemaning qo'shiluvi natijasida yangi leksema vujudga keladi. Yasama so'z esa so'z yasalish xosilasi bo'lgan birlik bo'lganligi uchun leksikologiya materialiga aylanadi. Ana shu jihatlarni hisobga olgan holda A.G'ulomov ham so'z yasalishini dastlab leksikologiya tarkibida o'rganishni tavsiya etadi. Biroq XX

[25] Ғуломов А. ва бошқ. Узбек тили морфем лугати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1977.- Б.3; 8.
[26] *Ғуломов А. Ғ.* Узбек тилида суз ясаш йуллари ҳакида. Тил ва адабист институти асарлари, I китоб. Узбек тили грамматикасидан материаллар. Т.! «УэФАМ», 1949, 38-бет.

asrning 50 –yillarida bu sohaning alohida mustaqil soha — sath ekanligi masalasi tilshunoslikda o‘z isbotini topdi. Ya`ni A.G‘ulomov “Bu alohida, mustaqil lingvistik soha” (“Это самостоятельная лингвистическая дисциплина”)[27] degan fikrini 1955-yilda aytgan edi.

Keyinroq, 70-yillarga kelib, olim “Demak, so‘z yasalishining o‘z obyekti bor, bunda grammatika va leksika sohalari bilan umumiylik tomonlari ham bor... so'z yasashni morfologiya yoki leksikologiyaga kiritilishi uning bir tomoninigina o‘z ichiga oladi” degan fikrni ilgari surdi.

A. G‘ulomovning 50 -yillarda aytgan fikri rus tilshunosligida jiddiy yangilik sifatida tan olinib, so'z yasalishi 70 -yillarda yaratilgan milliy grammatikalarda

mustaqil soha sifatida berildi. Shu bilan birga, bu sohaning o‘z obyekti mavjudligi, u tilshunoslikning grammatika, leksika, fonetika, semasiologiya kabi sathlari bilan chambarchas aloqada ekanligi e`tirof etildi. Olimning bu fikrlari keyingi yillarda jiddiy tadqiqotlar uchun nashriy asos bo‘ldi.[28]

A. G‘ulomov o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini, tarixini chuqur bilganligi sababli, so‘zlarning ichki o‘zgarishlari asosida (avval fonetik o‘zgarish, keyin ma`no differentsiatsiyasi) yangi so‘z hosil bo‘lishini, buning alohida so‘z hosil qilish usuli ekanligini, umuman, tilshunoslikda, qolaversa, turkologiyada birinchi bo‘lib aytib o‘tdi. Bu usulning, ayniqsa, bir bo‘g‘inli so‘zlar doirasida eng qadimgi davrlarda keng tarqalganligini asoslab berdi.[29] Bu ishda yoy — yoz. lam — la i m.kuch —cho‘k, bo‘yin —ko‘yin. aka — uka. ota — aka. og‘a — aka. yor — yir. qul — kil. sik — so'k. ko‘z — ko‘r. bit — but kabi ko‘plab so‘zlar juftligida yangi so‘z hosil bo‘lganligi tahlil qilinadi. Bu narsa, shuningdek, A.G‘.G‘ulomovning “So‘z yasalishi, ma`lum ma`noda, diaxroniyaga asoslanadi” degan fikri (dokt. dis. avtoreferati) keyinchalik, biz ta`kidlaganimiz, “Qo‘shma so‘zlar ikki bosqich asosida yuzaga keladi, ya`ni ikki so‘z qo‘shiluvidan, avvalo, so‘z birikmasi hosil bo‘ladi so‘ng esa birikma tarkibida fonetik, semantik va grammatik o‘zgarish yuz berishi asosida qo‘shma so‘z hosil bo‘ladi: belning bog‘i — belbog‘, oq tepa — Oqtepa, katta qo‘rg‘on — Kattaqo‘rg‘on, yangi yo‘l (yangi ko‘ylakka qiyoslang) — Yangiyo‘l kabilar (bu har ikki holat alohida o‘rganilyapti)”. Tilshunoslik nazariyasi taroqqiyoti so‘z yasashni tilshunoslikning alohida sohasi deb qarashni taqozo qildi va “so‘z yasash” tilshunoslikning mustaqil bir bo‘limi sifatida talqin qilina boshladi.[30] O‘zbek tilshunosligida morfema nazariyasining shakllanishida A.G‘ulomov, A.Hojiyev, Y.Tojiyevlarning xizmatlari beqiyosdir.

---

[27] Гулямов А. Г. Проблемь! исторического словообразования узбекского язмка, часть I, Аффиксация, Аффисьг словообразовательньж имён АДД, Т., 1955, с.4

[28] Qarang: A. Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги(Айюб Ғулом таваллудининг 90 йиллигига бағишланган илмий тўплам) Т — 2004

[29] 2 Гулямов А. Г. Словообраэование путём внутренних изменений слова, Научная сессия Ах Наук, 1947 г., с.383 — 392.

[30] Садыков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1981, 132-бет

So‘z yasalish hodisasi tilshunoslikning morfologik hamda leksik sathlari bilan uzviy aloqador bo‘lgani holda, o‘zi alohida bir bo‘limni, ya`ni morfemik sathni tashkil etmoqda. So‘z yasalishini morfologiya yoki leksikologiyaga bo‘limlariga kiritilishi uning bir tomoninigina o‘z ichiga oladi. Holbuki, so‘z yasashning o‘z obyekti mavjud bo‘lgani holda, tilshunoslikning grammatika, leksika, fonetika, semasiologiya kabi sathlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan bir qatorda “so‘z yasash” tilshunoslikning mustaqil bir bo‘limi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуҳамид Нурмонов. Ўзбектилшунослиги тарихи. – Т.: Фан. 2002.
2. Ғуломов А. ва бошқ. Узбек тили морфем лугати. -Тошкент: Уқитувчи, 1977.
3. *Руломов А. Ғ.* Узбек тилида суз ясаш йуллари ҳакида. Тил ва адабиёт институти асарлари, I китоб. Узбек тили грамматикасидан материаллар. Т. «УзФАН», 1949.
4. Гулямов А. Г. Проблемь! исторического словообразования узбекского язика, часть I, Аффиксация, Аффисьг словообразовательньж имён АДД, Т., 1955.
5. А. Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги(Айюб Ғулом таваллудининг 90 йиллигига бағишланган илмий тўплам) Т — 2004
6. Гулямов А. Г. Словообраэование путём внутренних изменений слова, Научная сессия Ах Наук, 1947 г.
7. Садыков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1981.